

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH  
METODIKASI.**

*Yo‘ldosheva Zuxra Olimjon qizi*

*Xudoyberdiyeva Shahzodabonu Fayzullajon qizi*

*O‘razaliyeva Odina Maxmud qizi*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti*

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 817-21 guruh 3-bosqich talabalari.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlarini o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, o‘quvchilarning ham nutq qobiliyatini, ham to‘g‘ri fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shunda o‘quvchilar o‘z nutqida so‘zlarni ongli qo‘llay oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqola so‘z turkumlaridan ot so‘z turkumini Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish haqida.

**Kalit so‘zlar:** Metodika, Ona tili o‘qitish metodikasi, So‘z turkumi, So‘z turkumini o‘rgatishning mohiyati, Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumini o‘rgatishning bosqichlari, Ot so‘z turkumini o‘rgatish.

**Аннотация:** В данной статье обучение учащихся начальной школы словарному запасу, обучение их правильному их использованию в устной и письменной речи, разговорной способности учащихся и правильному мышлению служит развитию способностей. Тогда учащийся предстает как личность, умеющая осознанно использовать слова в своей речи. Эта статья посвящена обучению учащихся начальной школы существительным из словосочетаний.

**Ключевые слова:** Методика, Методика преподавания родного языка, Словарный запас, Сущность обучения лексике, Этапы обучения лексике в начальных классах, Обучение именной лексике.

**Abstract:** In this article, teaching vocabulary to elementary school students, teaching them to use them correctly in oral and written speech, students' speaking ability and correct thinking serves to develop the ability. Then students appear as a person who can consciously use words in their speech. This article is about teaching noun phrases from word phrases to elementary school students.

**Key words:** Methodology, Methodology of mother tongue teaching, Vocabulary, The essence of teaching vocabulary, Stages of teaching vocabulary in elementary grades, Teaching noun vocabulary.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumini o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan asosiy mehnat va e‘tibor talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Ona tili

darslari ijtimoiy -foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalarga o'z fikrini bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining ro'lini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tadbqiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llanilgan vazifalar, metodlarda o'z aksini topadi. Ona tili darsi o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq opzlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir so'z turkumi alohida o'rgatiladi. Bu so'z turkumlarini o'rgatishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratiladi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Masalan, „Ot“ mavzusini o'rgatish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumiy ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, ilmiy asoslangan, bir biri bilan bog'liqlikda o'rgatiladi. Shuningdek otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asra murakkablashib boradi. Til xodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan. Shu bilan birga „Ot“ mavzusini o'rgatishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan har bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-2 sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rgatiladi, 3-sinflarda otga atama beriladi, otning birlik va ko'plikda qo'llanilishini o'rganishga ahamiyat beriladi. 4-sinflarda esa otning egalik qo'shimchalarj bilan qo'llanilishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga katta ahamiyat qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan narsalarni farqlashga o'rgatiladilar. So'zning leksik ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratiladi. So'zlarning ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlarni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi(kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi) . O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli



otlarni bosh harf bilan yozish shakllanadi. 2-sinfda otlarning leksik maʼnosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi tushunchalar chuqurroq shakllantiriladi. 3-sinfda „Otlarning bitlik va koʻplikda qoʻllanilishi“ ustida ishlash jarayoni oʻquvchilarda

1. Birlik va koʻplikda qoʻllangan otlarning maʼnosi va qoʻshimchasi orqali farqlash.

2. Birlikdagi otdan koʻplik shaklidagi va aksincha, koʻplikdagi otdan birlik shaklidagi otni hosil qilish.

3. Gapda soʻzlarning bogʻlanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda toʻgʻri foydalana olish koʻnikmalari shakllantiriladi.

4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va krlshik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozishga oʻrgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagicha oʻrgatiladi:

1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish.

2. Koʻplikdagi otlarning turlarini oʻrgatish.

3. Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida oʻrgatish va u bilan bogʻliq holda kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqida koʻnikma hosil qilish.

Biror mavzu uoki maʼlumotni oʻquvchilarga qanday usulda yetjazib berish bu oʻqituvchining pedagogik mahoratidir. Oʻz ona tilida ravon gaplashadigan, nutq madaniyatiga amal qiladigan, oʻz nutqining sofligini saqlay oladigan yoshlarni tarbiyalash har bir pedagogning bosh maqsadi boʻlishi kerak. Otni oʻrgatishga tayyorlov bosqichi savod oʻrgatish davriga toʻgʻri keladi. Bu bosqichda oʻquvchilar predmetlarni va ularni nomi boʻlgan soʻzlarni farqlashga oʻrganadilar. Keyingi bosqichda otning leksik maʼnosi va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi. Oʻquvchilar kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan otlardan nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan otlarni farqlashni oʻrganadilar. Bolalarda koʻpgina atoqli otlarni bosh harflarda yozish koʻnikmasi shakllanib boradi. 2-sinfda otlarning leksik maʼnosi atoqli va turdosh otlar haqidagi bilimlar chuqurlashtiriladi. „Ot“ tushunchasini shakllantirish uchun shu soʻz turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalariga ajratish, barcha otlarga xos boʻlgan belgilarni koʻrsatish, ularning nutqimizdagi roʻlini ochish katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni oʻrganishga bagʻishlangan birinchi darsdayoq predmetlarni bildiradigan soʻzlar sistemaga solinadi. Shu soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan belgilar aniqlanadi. Bu soʻzlar predmetlarni bildirib kim? yoki nima? soʻrogʻiga javob boʻladi. Xulosa qilib oʻquvchilarga: „ Ot atrofimizni oʻrab olgan predmetlarning nomi, bu soʻzlarsiz bir birimizga oʻz fikrimizni bayon qila olmaymiz.

Boshlangʻich sinflarda otni oʻrganish vazifalari:

1. „Ot“ haqida grammatik tushunchani shakllantirish.

2. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan otlardan nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan otlarni farqlash koʻnikmasini hosil qilish.

3. Kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yiladigan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi bilan tanishtirish.

5. Otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

6. Otlarni kelishoklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish.

Ot gapda boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda qo‘shimchalar bilan o‘zgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Chunki, o‘quvchilar birinchi sinfdayoq si‘z formulasining o‘zgarishi bilan amaliy tanishadi, ammo ular so‘z formasi nima ekanligini hali bilmaydi. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishadi, bu qo‘shimchalar fapda so‘zlarni bir birga bog‘lash uchun xizmat qilishini tushunib boradi. 3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli ferdalanish va kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o‘rganiladi:

1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish.

2. Ko‘plikdagi otlarning turlanishini o‘rganish.

3. Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o‘rganish va u bilan bog‘liq holda kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida ko‘nikma hosil qilish.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Boshlang‘ich sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darsining o‘tilishi katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘qib tushunishi, tinglab tushunish, yozish savodxonligi, og‘zaki va yozma shaklda fikrlarini yetkazib berishga bog‘liqli so‘z boyligini boyitishga, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini shakllanyirish, mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini tortinmasdan yetkazib berish uchun yordam beradi. Albatta, bunday bilim va ko‘nikmalarning boshlang‘ich sinf davridayoq shakllanib borishi, ertangi kuni o‘zi va mamlakatimiz uchun foydali kasb egasi bo‘lishiga yo‘naltiradi. Shuning, uchun ham, biz, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z mutaxassisligimizni chuqur o‘rganib, ertangi yosh avlodga chuqur bilim berib, qiziqishlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz va kelajakda yurtimizga foydasi tegadigan mutaxassis bo‘lib yetishishiga sababchi bo‘lmog‘imiz darkor.